

“AYN UL -HAYOT” QASIDASI, NASHRLARDAGI TAFOVUTLAR

Bekova Nazzora Jo‘rayevna

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası f.f.d., (DScp Prof.

Muxtorova Dildora Istamovna

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Mumtoz she‘riy janrlarning eng qadimiyalaridan biri bo‘lgan qasida janri xususiyatlari va Alisher Navoiyning na‘t qasidasi bo‘lmish “Ayn ul hayot” qasidasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar : na‘t, qasida, me‘roj, vazn., ramal, baxr.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Sittayi zaruriya” qasidasi O‘rta Osiyo, arab va eron xalqlari she‘riyatida katta o‘rin tutgan. Qasida janri lirikaning rivojida muhim rol o‘ynagan. Qasidago‘ylik XIV –XV asrlarga kelib o‘zbek shoirlari orasida keng tarqalgan edi. Sharq adabiyotida qadimgi davrlardan beri mavjud bo‘lgan qasida, ayniqsa Navoiy va uning zamondoshlari ijodida yuqori pag‘onaga ko‘tarildi. Shuning uchun bu davr qasidago‘ylik va uning an‘analarini o‘rganmay turib, O‘zbek adabiyotining rivoji haqida, ayniqsa, Navoiy ijodi haqida tugal bir fikr aytish qiyin. Lekin shunga qaramay, hozirgacha o‘zbek klassik adabiyotida ham bu masala durustroq o‘rganilmagan.

XIV-XV–asrlar o‘zbek adabiyotida qasida va qasidago‘ylikka bag‘ishlangan maxsus ilmiy asar bo‘lmada, antologiyalarda ko‘rish mumkin.

Milliy istiqlolgacha Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti sho‘rolar mafkurasi tazyiqi ostida “dunyoviy adabiyot”, “feodal-saroy (klerikal) adabiyoti”, “diniy-mistik adabiyot” tarzida sun‘iy ravishda uch guruhga parchalangan edi. Mazkur yo‘nalishlardan faqat dunyoviy (xalqchil) adabiyotgina ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o‘rganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining ijod namunalari ham ilohiy-irfoniy g‘oyalardan “tozalanib”, markscha-lenincha mafkura tamoyillari asosida tahlil va talqin qilindi.

Shunga ko‘ra, Alisher Navoiyning “Devon”lari, “Xamsa” dostonlari ibtidosida kelgan kirish boblar – hamd, na‘t, sano, me‘roj, munojot talqiniga atalgan maxsus parchalar, nasriy asarlari, ilohiy tavhid madh etilgan “Ruh ul-quds” qasidasi, ilohiy-islomiy hukmlar talqiniga bag‘ishlangan “Siroj ul-muslimin”, “Munojot” kabi asarlari,

ilohiyotga doir qarashlari maxsus tadqiq etilmadi. Hatto asarlari tarkibidagi kirish hamdlar “qirqib”, nashr etildi. Shuning uchun bugunga qadar ulug‘ shoirning hamd yo‘nalishidagi asarlari nisbatan kam o‘rganildi.

Bu masalaning o‘z izohlari borligi ayon, albatta. Alisher Navoiyning hamd g‘azallari “uning lirikasidagi o‘tkinchi va tobe’ bir kayfiyat” sifatida e‘tirof etildi. Taniqli adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda hazrat Navoiyning hamd g‘azallarini mafkura tazyiqlari (dahriy tuzum uchun zararli ma‘naviy unsur sifatida butunlay yo‘qotib yuborilishi)dan saqlab qolish maqsadida atayin shunday baholashni lozim deb topgan.

Shunday bo‘lishiga qaramay, Alisher Navoiy ijodining ilohiy-irfoniy manbalardan oziqlanganligi e‘tirof etilgan edi. Bu ayniqsa, E.E.Bertels, Oybek, A.Rustamov, H.Sulaymon, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, N.Komilova, R.Vohidov, S.G‘aniyeva, H.Ne‘matov, I.Haqqulov, E.Shodiyev, Yo.Is‘hoqov va yana bir qator olimlarning ishlarida yorqin ko‘zga tashlanadi.

"Sittai zaruriya" qasidalar turkumi esa shoirning kam o‘rganilgan asarlari sirasiga kiradi.

"Sittai zaruriya"ga bo‘lgan qiziqish asrimizning 60-yillaridan jonlana boshladi.

Forsiyda bitilgan, 724 baytdan iborat "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") ning to‘la matnini professor Hamid Sulaymon ulug‘ shoirning Parij Milliy kutubxonasi 285-raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma devoni asosida arabiy va krill imlosida 1968 yilda "Adabiy meros" majmuasida nashr ettirdi.

Oradan yigirma besh yil o‘tgach, bu yo‘lni tojik adabiyotshunosi Ali Muhammadiy davom ettirdi, ya‘ni qasidalar turkumi Dushanbeda (1993 yil) arab yozuvida "Irfon" nashriyotida ulug‘ o‘zbek shoiri forsiy she‘rlar bir jildlik saylanmasi tarkibida chop etildi.

Bu qasidalar turkumi o‘tgan asrning 70-yillarida madaniy merosga lenincha munosabat tamoyillari nuqtai nazaridan o‘rganilganki, bunday munosabat asar tub mohiyatini ochish imkonini bermagan.

“Devoni Foni”da muhim o‘rin tutuvchi janrlardan yana biri qasidalaridir.

Ularning soni 10 ta bo‘lib, ikki turkumni: “Sittai zaruriya” (“Olti zarurat”) va “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) qasidalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

“Sittai zaruriya” olti qasidadan iborat bo‘lib, Alisher Navoiy ularning mavzusi haqida “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da shunday yozadi: “Bu olti qasida hamd va na‘t va sano va mav‘izotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma‘rifat”. Mazkur majmua 1497 yilda tartib berilgan bo‘lib, uni tuzishga Navoiyni avval ustoz Jomiy, uning vafotidan so‘ng esa Sulton Husayn Boyqaro ilhomlantirgan.

Bu haqda majmuaga yozilgan debochada ma‘lumot keltirib o‘tiladi.

Ma'lumki, Navoiy ijodida Payg'ambar(SAV)ga bag'ishlangan na'tlar ko'p. Har bir devon avvalida Parvardigor hamdidan keyin Payg'ambari Akramga atalgan na't g'azallar keltiriladi. Ba'zi devonlarning o'rtalarida ham na't g'azal bor. Dostonlar ham avval Xudovand hamdi, so'ngra Payg'ambar na'ti bilan ochiladi. Bu — an'ana. Xuddi shu singari «Sittai zaruriya» yaxlit bir asar deb qaralgani uchun birinchi qasida tavhidi Bori taoloni talqin etsa, ikkinchi qasida Payg'ambar Me'roj tasviriga bag'ishlangan. Me'roj Navoiy Foniyning alohida sevgan mavzuidir.

Majmuadagi ikkinchi qasida “Ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi”) deb nomlangan. Hajman 106 bayt bo'lib, mazmuniga ko'ra na't qasida hisoblanadi. Qasidaning yaratilgan yili noma'lum. “Ayn ul-hayot” olam sarvari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak me'rojlarini, ularning diydorlariga barcha sayyoralar, oyu quyosh, arshu kursi, farishtalar muntazir ekanligi, Payg'ambarimizning Parvardigor bilan muloqotlari tasviriga bag'ishlangan.

Alisher Navoiyning “Ayn ul hayot” qasidasi asliy matnini qiyoslash uchun Ali Muhammadiyning 1993-yil Tojikistonda “Irfon” nashriyotida nashr ettirgan “Devoni Forsiy”sidan o'rin olgan asliy matn va Toshkentda 1968-yil chop etilgan Adabiy meros to'plamidagi nashri asos qilib olindi. Ushbu nashrlardagi asliy matnlar o'zaro taqqoslanib, o'xshash va farqli tomonlari o'rganildi. Ali Muhammadiy tomonidan nashr ettirilgan asliy matn forsiy alifboda yozilganligini ko'rishimiz mumkin. Qasidaning Adabiy meros to'plamidagi nashri esa arab grafikasi asosida yozilgan. Bu esa o'z navbatida nashrlararo xilma-xillikni yuzaga keltirgan.

Alisher Navoiyning “Ayn ul hayot “ qasidasining asliy matni Adabiy meros to'plami va 1992-yilda Tojikistonning Dushanbe shahrida Ali Muhammadiy tomonidan “Irfon” nashriyotida bosib chiqarilgan va “Devoni Forsiy “ deya nomlangan nashrlar solishtirilib ular o'rtasidagi farqlar va tafovutlar aniqlandi.¹

Alisher Navoiyning “Ayn ul –hayot “ qasidasining turli davrda joriy yozuvga o'girilgan nashrlaridagi o'zgarishlarni baytma bayt tahlil qilib asosan o'zgarishlar kuzatilgan baytlardagi farqlar xususida to'xtalib o'tamiz.

“Devoni Forsiy” ning 45-baytida

Sham'ro chun qat dar zulfi sumanso afganand

Dar sumanbiyoni subh oyini yag'mo afganand

kabi misralarning Mukammal asarlar to'plamining 20- tomida keltirilgan xuddi shu misralar quyidagicha berilgan:

¹ 1. Бекова Н. «Девони Фоний»нинг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 4-сон. –Б.9-13

16 1. Бекова Н. «Девони Фоний»нинг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 4-сон. –Б.9-13

Shomro chun qat dar zulfi sumanso afganand
Dar sumanbiyoni subh oyini g‘avg‘o afganand.
Xuddi shu bayt 10 tomlik To‘la asarlar to‘plamida ham MAT dagi kabi
Shomro chun qat dar zulfi sumanso afganand
Dar sumanbiyoni subh oyini g‘avg‘o afganand.¹
Shaklida keltirilgan.

Misralarda qo‘llanilgan “sham” va “shom” so‘zlarining hamda “yag‘mo” va “G‘avg‘o” so‘zlarining matndagi ma‘noga ta‘sirini solishtirib ko‘rsak Shom qoraligiga barham berishni go‘zal qora zulflarga havola qiladilar, tongning xushbo‘y egalariga g‘avg‘o qilish odatini topshiradilar. Ushbu misralardagi “sha‘m” va “zulf” ni bir yonga qo‘yilganda ma‘no xiralashadi. 20 tomlikda esa shom va subh, tong chog‘i, yorug‘lik ma‘nolari bilan misradagi shom qorong‘uligi qora zulflarga o‘xshatiladi va ma‘no jihatidan 20 tomlik mukammalroq tuzilgani uchun “shom” so‘zini qo‘llash orqali ma‘no tugalligiga erishiladi deb o‘ylayman. 10 tomlikda ham bu misralar “shom” so‘zi bilan keltirilgan.

“Ayn ul hayot” qasidasidagi ushbu misrani tahlil qilsak:

Bo niyozu ajz regi biyobon beshtar
Ro‘di sayli ashk so‘yi regi Batho afganand.

Alisher Navoiy biyobon qumlaridan ham ziyoda iymon e‘tiqodli kishilarning Allohga munojot bilan ko‘zlaridan yosh selini oqizib. Makka vodiysiga din-u dunyo qiblagohiga yurib borishlari tasvirlanadi. Bu o‘rinda ziyoratchilarning son jihatidan ko‘pligi biyobon qumlarining chek –chegara bilmasligi bilan qiyos qilingan. Ayni paytda ushbu tashbehda mubolag‘ayi g‘ulu ham ifodalangan.

Batho-Makka vodiysining qadimgi nomi.

Xuddi shunday ushbu misralarga o‘xshash 90 – baytda keltirilgan

Az ahodisat sahihiro ravot andar raqam,
Boru bob az haddi Batho to Buxoro afganand.

Qasidaning bu baytidagi “Az ahodisat sahihiro” iborasi uning mazmuniga ishira qilib turibdi. Unda Navoiyning Buxoroga islom markazlaridan biri sifatidagi kata rag‘bati anglashiladi. Ma‘lumki, islom olamining yirik namoyondalaridan Imom Buxoriy Muhammad payg‘ambarning muallifligi tasdiq etilgan hadislarini jam qilib, “Sahihi Buxoriy”, “Al Jome‘ as-sahih” kitobini tartib bergan. Shu munosabat bilan Imom Buxoriy kitobiga bo‘lgan e‘tiqod kuchaygan edi. Navoiy yuqoridagi baytda shu holni qalamga olib “Hikmat egalari sening asl hadislarining

Batamkin

204 b harfidan keyingi a harfi tushib qolgan

miqdori haqida soʻz borganda –ular **Batho** (Makka) eshigidan Buxorogacha yozilgudekdir deb aytadilar “tarzida gʻoyat nazokatli bir fikrni ifodalaydi.” qasidasining turli nashrlaridagi tafovutlarni solishtirish davomida qasidaning ushbu 3 ta nashrini oʻzaro yonma yon qoʻyib, ularda soʻz va harf oʻzgarishlari bunday oʻzgarishlarning maʼnoga taʼsirini aniqlashga harakat qildik. Quyida oʻzgarishlar aniqlangan baytlarni havola etamiz va tahlil qilamiz:

5- bayt

Qutb chun piri batamkin v- axtaru anjum samoʻ

Chun muridon girdi piri poybarjo afganand.

Irfon nashriyotida bosib chiqarilgan nashrda forsiyda yozilgan batamkin soʻzida bir **a** tushirib qoldirilgan

Misralarida keltirilgan v- axtaru A.Navoiyning 20 tomlik “Mukammal asarlar toʻplami”da v- axtaru tarzida, 10 tomlik “Toʻla asarlar toʻplamida v- axtaru, Ali Muhammadiyning nashrida **axtaru** shaklida kelgan. Ushbu soʻzning vazn talabi bilan vov orttirilib v- axtaru tarzida joriy matnga oʻgirilishi maʼno mazmuniga taʼsir qilmasligini koʻrish mumkin.

Ushbu baytdagi Chun muridon girdi piri **poybarjo** afganand misrasida keltirilgan “girdi pir” soʻz birikmasi 20 tomlik va 10 tomlikda girdi pir shaklida kelgan, Ali Muhammadiy nashrida esa bosh harf bilan “**Girdi piri**” tarzida yozilgan. Tarjimaga eʼtibor beradigan boʻlsak: Qutb yulduzi oʻrtada piri komildek turar, uning atrofida axtaru yulduzlar samo qilib, muridlar kabi oyogʻlarini harakatlantiradilar deyiladi. Girdi pir- purning atrofi tarzida tarjima qilingan va joriy matnga shu tarzda yozilgani uchun 20 tomlik va 10 tomlikdagi girdi pir shakli toʻgʻri yozilgan.

7- baytda

Bulajab turkon, ki har dam hinduoso az shahob,

Har bahoi simgun har soʻy amdo afganand.

Tarjimasi:

Bular ajoyib turklardurki, hindularga oʻxshab har dam shihob (meteor, uchar yulduz) dan yasalgan qurollarini qasddan chor atrofga otadilar deyiladi.

Ushbu misralarda qoʻllanilgan har soʻy soʻzi 20 tomlik va 10 tomliklarda har soʻy, ali Muhammadiy nashrida har soʻyi tarzida joriy matnga oʻgirilgan. Barcha nashrlarda shihob yaʼni uchar yulduz shahob tarzida yozilganini koʻrish mumkin. Har soʻy va har soʻyi soʻzlari vazn talabi bilan bir harf orttirilishi bilan maʼnoga taʼsir etmagan deya olamiz.

8- baytda

Dar chunin harb az baroyi toʻma nasrayni falak

Goh bikshoyandu gohe bolhoro afganand.

Tarjimasi:

Bunday urush paytida falak nasrayni uchun goh qanotlarini ochib, goh yopadilar. Nasrayni – ikki kargas shaklidagi yorug‘ yulduz .Eski astronomiyada Nasri toir va **Nasri Voqi’** deb atalgan.

Baytda keltirilgan **to‘ma nasrayni falak** birikmasi MAT 20 tomlik va TA10 tomlikda shu tarzda, Ali Muhammadiy nashrida esa **to‘mai nasrin falak** shaklida o‘g‘irilgan .

9- baytda

Rasta bedorand durji dur zi shohi govi ganj

Dida onone, ki bar Savru Surayyo afganand.

Tarjima:

Savr (ho‘kiz burji) va Surayyo (Hulkar) yulduziga ko‘z tikkanlar ,ho‘kiz burjining shoh va xazinalaridan to‘lgan dur qutichalarining (samo) do‘konlarida tizilib turganini ko‘radilar.

Ushbu baytdagi **Rasta bedorand** so‘z birikmasining 20 tomlik va 10 tomlikda rasta bedorand tarzida, Ali Muhammadiyning “Devoni forsiy”sida esa “**Rusta pindorand**” tarzida joriy matnga o‘g‘irilganini ko‘rish mumkin. Ammo arab yozuvidagi asl matnda ushbu so‘z birikmasining “**Rasta bedorand**” tarzida yozilganini ko‘rib, 20 tomlik va 10 tomlikdagi so‘z birikmasining to‘g‘ri yozilgan deya olamiz.

10- baytda

Nasri voqe’ dar dil oyad shon zi ro‘yi e’tibor

Chashm agar bar nuqtahoyi shinni she’ro afganand.

Ushbu baytda Nasri voqe’ tarzida kelgan so‘zlar 20 tomlikda nasri voq’ tarzida, Ali Muhammadiyning “Devoni Forsiy” sida nasri voqe’ tarzida joriy matnga o‘g‘irilgan. 10 tomlikda ham nasri voq’ tarzida joriy matnga o‘g‘irilgan. Eski astronomiyada Nasri Toir va Nasri Voqi’ deb atalgan ikki kargas shaklidagi yorug‘ yulduz nomi borligi ma’lum . shuni inobatga olib Nasri voqe’ matn mazmuniga mosligini solishtirib ko‘ramiz.

Tarjimasi:

Agar she’ro yulduzining nuqtalariga nazar tashlasalar, e’tiborni tortib, Nasri Voqi’ (kargas shaklidagi yorug‘ yulduz)ni yodga soladilar deya tarjima qilinadigan baytning ikkinchi misrasida qo‘llanilgan shinni she’ro birikmasi 20 tomlik va 10 tomlikda “shinni she’ro” tarzida kelgan bo‘lda Devoni Forsiyda “shinni sha’ro” tarzida joriy matnga o‘g‘irilgan. Yuqoridagi baytning tarjimasiga e’tibor qaratsak misrada keltirilgan she’ro-ikki yorug‘yulduz deya tarjima qilinadi. Biri SHom she’rosi –Prosien, ikkinchisi Yaman she’rosi–Sirius (bu ikkalasi Suhayl yulduzining ukalari deb ham yuritiladi. Ushbu tarjimadan shu aniq bo‘ladiki 20 tomlik va 10 tomlikda keltirilgan **she’ro** so‘zi ya/ni ikki yorug‘ yulduz matn mazmuniga mosligini ko‘rish mumkin.

14- baytda

Tiri rammole ki bahri g'aybati mehr axtaron
Bar bisotash muzdi rammoli diramho afganand.

Tarjimasi:

Tir (Atorud) yulduzi bir rammol (folbin) durki Quyoshning g'oyib bo'lganiga motam tutib fol ochadi, yulduzlar uning bisotiga folbinlik haqi uchun tangalar tashlaydilar deyiladi. Ushbu misralarda keltirilgan tirri rammole so'zi bunda Atorud yulduzi folbinga o'xshatilgan. Ushbu misralardagi tiri rammole va tiri rammoli so'zlaridagi bir harf o'zgarishi bilan matn mazmuniga ta'sir qilinmagan.

16- baytda

Chobuki gardun ba no'gi nayza **birboyand** agar
Xalqayi davri jadi bar dashti hayjo afganand.

Tarjimasi:

Chaqqon falak Jadi burjining halqasini nayzasi uchiga ilib jang dashti ga otib yuboradi. Ushbu misralardagi birboyand so'zi –ilib otish, Ali Muhammadiy nashrida **bardorand** –ko'tarish shaklida joriy matnga o'girilgan bo'lib, bunda matn mazmunidan kelib chiqib, 20 tomlikda va 10 tomlikda **birboyand** so'zi qo'llanilishi to'g'ri ekanligi ko'rinadi.

19-baytda

Bar chunin hangoma xayli **lo'batoni sobitot**
Chashm az hashtum **g'uraf** bahri tamosho afganand.

Tarjimasi :

Shunday bir hangomada o'yinchoq qo'g'irchoq sobit yulduzlar tomosha qilish uchun sakkizinchi falak boloxonalaridan o'zlarini pastga otadilar .Ushbu misralarda **sobitot** va **sobiton** so'zlarida o'zgarish kuzatilgan .20 tomlik va 10 tomlikda sobitot tarzida Ali Muhammmadiy nashrida sobiton tarzida keladi .Ikkinchi misradagi “**g'uraf** “ so'zi “Devoni Forsiyda “**guraf** “ tarzida kelgan. **Jamol Kamol tomonidan qilingan she'riy tarjimasi asosidagi “Ayn ul hayot “ qasidasining ushbu baytlarini tahlil qilamiz :**

Shom yorishgaydir go'zallarning sumanso zulfiddin ,
Tong sumanbo'lar uni ko'rganda evoh aylagay.
Sufiy Kunduz qaro tun ko'rpasini tark etib ,
Taylasonin yelkaga tashlab ,xuvaydo aylagay .
Foilotun foilotun foilotun foilon.

Demak, bu bayt bilan boshlanuvchi na't-g'azal ramali musamman-i mahzufda yozilgan. Bu vaznning oxirgi bo'g'ini cho'ziq bo'ladi.

Romal bahri (romal-tuyaning tez va bir maromda yurishi)dagi she'rlar tez va yengil o'qiladi. “- V- -“.

Yuqoridagi baytimizda “ sumanso ” va “ xuvaydo “ qofiyalanuvchi so‘z, “ aylagay” esa radifdir.

Qasidadada ohangdoshlikni qofiyadagi so‘zlar hosil qiladi. Qofiyalanuvchi so‘zlar ham ohangdoshlikda, ham ma’no jihatidan teng bo‘lvermaydi: ohangdoshlik jihatidan teng bo‘lsa, ma’no jihatidan teng bo‘lmaydi va, aksincha, ma’no jihatidan teng bo‘lsa, ohangdoshlikda farq qiladi. Qofiya hosil qiluvchi so‘zlarning ohangdoshligi o‘zak bilan o‘zak orasida, o‘zak bilan qo‘shimcha o‘rtasida vujudga keladi. Qofiya g‘azallarimizning musiqiyliigi va ritmini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Qofiyaning yana bir muhim vazifasi-she’rning g‘oyaviy mazmuni bilan bog‘liqligidir. U she’rda mazmuni go‘zal va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Qofiya she’r g‘oyasini tashuvchi asosiy so‘zlarni misraning o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadigan o‘rniga joylashtirishni taqazo qiladi. Hazrat Alisher Navoiyning o‘zlari “Layli va Majnun” dostonida shunday yozadilar.

Ham qofiyasi aning sifati,

Ham barcha radifi aning oti.

Bu bilan shoir o‘z asarlaridagi qofiya va radiflar badiiy g‘oya bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Qofiya muktadonlarining uqtirishicha, “aruz vaznida yozilgan she’rlarda qofiya haroflari har vaqt harakatli yo harakatsiz undosh yoxud uzun unli bo‘ladi, hech vaqt qisqa unli bo‘lmaydi. ” misol:

Quyidagi baytda qofiya harflari cho‘ziq (uzun) unilardir:

Besh namoz ichra mudom to‘qqiz falak aylar ruqu’

Ko‘rgay ul ko‘z kim, hisobi harfi “Toxo “ aylagay

Ul aziz o‘n to‘rtta ma’sumni barobar tut mudom ,

Yetmadim deb muncha ma’sumlikka Yaxyo yig‘lagay.

“ **Toho** ” hamda “ **Yaxyo** ” so‘zlari asosida qofiyalangan baytning qofiyalanishi va radif “ **aylagay** ” va “ **yig‘lagay** ” so‘zlari qofiyani tashkil etgan

G‘aribi musaddasi salim vaznida yozilgan quyidagi baytga diqqat qiling:

Tun qarisidin qoraygan mulki **olam** sahniga

Bori ravshanlikni subhi **olamoro** aylagay

Bu ikki misra “olam ” hamda “**olamoro**” lafzlari vositasida o‘zaro qofiyalangan.

Qofiyaning she’riy asarda tutgan o‘rni va ahamiyatini to‘laroq mufassalroq anglab yetish uchun qofiya ilmi asoslari: “qofiyaning tuzilishi va turlari, she’riy janrlarning qofiya xususiyatlari, qofiya san’atlari va xatolari, vazn va qofiya, radif va qofiya munosabatlari mazmuni va mohiyatini atroflicha bilish zarur.

¹ Alisher Navoiy. Muqammal asarlar tўplami. 18-жилд, 334-бет.

² Фарҳанги забони тоҷики. Нашриёти “ Советская Энциклопедия ”. Москва, 1969. 445с,881 с.

³ Аlisher Navoiy. XV томлик, 5-жилд, 1-китоб. 230-бет. Аlisher Navoiy. Muqammal asarlar tўplami. 18-жилд, 356-бет.

⁴ Аlisher Navoiy. 10 томлик, 5-жилд, 179-бет.

⁵ Фарҳанги забони тоҷики. Нашриёти “ Советская Энциклопедия ”. Москва, 1969. 750 с.

Qasida nashrlari matnidagi tafovutlar o'rganilib, ularning ma'no va badiiyatga ta'siri tahlillar asosida dalillanadi. Asar tarjimalari, asliyat va badiiyati bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritib, ilmiy tadqiq etildi va tarjimalardagi farqlar kuzatildi Sayfiddin Rafiddinovning nasriy tarjimasida 106 bayt „Jamol Kamol sheri tarjimasida 105 bayt bo'lib kelgan.

Tarjimada 1 baytning tushirib qolinish holati kuzatildi.

Sayfiddin Rafiddinov „Sittayi zaruriya“ ni nasriy tarjimasini amalga oshirish borasidagi o'z fikrlarini bayon etib: „Qalblar ozuqasi balog'at va fashohat bilan ifodalab, kitobxonni fikru mushohada yuritishga undaydi.

O'quvchi qasidalarni mutolaa qilar ekan, o'zida dunyoviy va uxraviy saodat haqida teran mulohaza yuritishga, shoirning maqsad-muddaosini anglashga moyillik, intilish sezadi. Navoiydek hurfikr Haq oshigini tushunish ham bir ne'matdir.¹

Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, uning naqadar katta va boy ekanligiga qayta-qayta guvoh bo'lavermiz. Turkiy tilda yaratgan asarlari bizning ongimiz, shuurimizga shunchalar singib ketganki, har qadamda Navoiy yaratgan baytlarni tilga olamiz, o'z hayot yo'limizni yorituvchi shamni ushlab olgandek yo'limizda qo'rqmay davom etamiz. Navoiy forsiy tilda yaratgan asarlariga ham shunday mazmun-mohiyatni singdirib ketganki, bizga, butun insoniyatga mash'ala vazifasini bajara oladi. Biz „Devoni Foni“ asaridan o'rin olgan „Ayn ul hayot“ qasidasini o'rganar ekanmiz, bunga yaqqol guhov bo'ldik. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning „Ayn ul hayot“ qasidasi, nashrlarda kuzatilgan tafovutlar, shuningdek, ularning qasida mazmuniga, mohiyatiga bo'lgan ta'sirli jihatlarni ham tahlil etishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. V жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. XV томлик, 5-жилд, 1,2-китоб.
3. Дехлави Амир Хусрав. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди чаҳорум. – Душанбе : Ирфон, 1975. –896 б.
4. Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва „Рух ул- кудс“ қасидасининг бадийати. Филология фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2003. –158 б.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. –T.: Ma'naviyat, 2005.
6. Komilov N. Faqr nuri porlagan qalb.- Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
7. Muhiddinov M. Komil inson - adabiyot ideali. – T.: Fan, 2005.

¹ Муҳаммад алайҳис саломнинг мўъжизалари, нашрга тайёрловчилар: Рафиддинов С. Раҳимова З. Тошкент, „Мовароуннаҳр“-199 бет